



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

106-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-73-son qarori ijrosi haqida”gi 108-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-73-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 108-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-73-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 108-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-73-son qarori bilan:

2024-yil 16-oktabr kuni Islomobod shahrida imzolangan 2017-yil 1-dekabrdagi Shanxay hamkorlik tashkilotining budjetini shakllantirish va ijro etish tartibi to‘g‘risidagi bitimga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi bayonnoma tasdiqlanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan mazkur xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida depozitariyga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari mazkur xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda uning qoidalari amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlashi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov